



Hamroyeva Muslima

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Eshbekova Dilafruz

Annotatsiya Maqolada manbalar va ilmiy adabiyotlarga asoslangan xolda yangi davr tarixining boshlanishiga turtki bo'lgan jarayon – dastlabki geografik kashfiyotlarning Xristofor Kolumb sayohatlariga ta'siri, ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy sharoitlari ishlab chiqarishda tajriba orttirish, aholi o'rtasida mehnat taqsimotining chuqurlashishi, mehnat qurollarini takomillashtirish va ishlab chiqarish texnologiyalarini tahlil qilingan

Kalit so'zlar: Yevropa, Buyuk geografik kashfiyotlar, Xristofor Kolumb, iqtisodiy o'sish, texnika taraqqiyoti, salib yurishlari.

Annotation The article analyzes, based on sources and scientific literature, the process that led to the beginning of a new era in history - the impact of the first geographical discoveries on the voyages of Christopher Columbus, the growth of productive forces, the main conditions for economic development - gaining experience in production, deepening the division of labor among the population, improving tools and production technologies. **Keywords:** Europe, Great geographical discoveries, Christopher Columbus, economic growth, technical progress, crusades.


Keywords: Europe, Great Geographical Discoveries, Christopher Columbus, economic growth, technological progress, Crusades.

Аннотация: В статье, на основе источников и научной литературы, анализируется процесс, приведший к началу новой эпохи в истории – влияние первых географических открытий на путешествия Христофора Колумба, рост производительных сил, основные условия экономического развития – приобретение опыта в производстве, углубление разделения труда среди населения, совершенствование трудовых орудий и производственных технологий.

Ключевые слова: Европа, Великие географические открытия, Христофор Колумб, экономический рост, технологический прогресс, крестовые походы.

Kirish

XV – XVII asrlardagi Buyuk geografik kashfiyotlar Yevropada kapitalning dastlabki jamg'arilish jarayoni bilan bo'g'liq edi. Yangi savdo yo'llarining ochilishi, kashf etilgan yerlarning o'zlashtirilishi va u yerlardagi boyliklarning talanishi bu jarayonni tezlashtirdi, mustamlaka tizimining shakllanishi boshlab berdi, jahon bozorining tarkib topishiga, Yevropada savdo kapitalining, bank ishi va kreditning rivojlanishiga olib keldi. Qit'alar o'rtasida iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlandi, jahon savdosi O'rta Yer dengizidan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Atlantika okeaniga ko'chdi. Salib yurishlari vaqtida rivojlangan levant savdosi o'rta asr oxiriga kelib doimiy savdo aloqalari tusini oladi. Sharqdan keladigan har xil mollar – ziravorlar (murch, dolchin, qalampirmunchiq, muskat yong'ogi va shu singarilar), qand, zargarlik, attorlik mollari, Sharqning har xil matolari va boshqa mollar G'arbiy Yevropadagi yuqori va o'rta sinflarning iste'moliga tobora ko'proq kira boradi. Janubiy Italiya, Janubiy Fransiya, Sharqiy Ispaniya (Kataloniya) shaharlaridagi savdogarlar Sharq bilan savdo qilishi natijasida juda katta boylik to'playdilar.

Biroq XV asrning ikkinchi yarmida O'rta dengiz orqali bo'ladigan savdo qattiq inqirozga uchraydi. Bir qancha sabablar ham ilgari levant savdosining rivojlanishiga to'sqinlik qilib kelgan edi. Sharq mollari arablar, vizantiyaliklar, italiyanlar va boshqa xalqlarning qo'lidan o'tganligi tufayli ularning narxi benihoya oshib ketardi. G'arbiy va shimoli-g'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi savdogarlar juda uzoqdagi Sharq bozorlariga borishlari amrimahol edi. Yaqin Sharqning turklar tomonidan istilo qilinishi levant savdosining ahvolini yanada mushkullashtirdi. Turklarning talonchiligi, dengiz qaroqchiligi, savdo kemalaridan, karvonlar va bozorlardan juda ko'p xilma – xil soliqlar olinishi tufayli O'rta dengizning sharqiy qismi bilan savdo qilish xavfli, kam foyda keltiradigan bo'lib qoldi va bu savdo ahyon – ahyondagina bo'lib turdi. Hindistonga olib boradigan, hali turklar bosib olmagan birdan – bir yo'l – Misr orqali va Qizil dengiz orqali boradigan yo'l qolgan edi, xolos. Ammo bu yo'lni arablar o'zlariga tamomila monopoliya qilib olgan edi. Hatto venetsiyaliklar ham Sharqqa borganda faqat Aleksandriyagacha borar va u yerda ularni arab savdogarlari o'z ziravorlari bilan kutib olardilar. G'arbiy Yevropadagi turli mamlakatlarning savdogarlari va dengizchilari arablar bilan turklarga duch kelmasdan Hindistonga boradigan boshqa yo'l topish ustida tobora ko'proq bosh qotira boshladilar.

Buyuk geografik kashfiyotlar bo'lmagach, sayyoh olimlar ekspeditsiyalar uyushtirib, yangi yerlarni o'zlashtirishni boshlagan. Ikkinchidan, Osiyoni Yevropa bilan bog'laydigan Buyuk Ipak Yo'li o'ta xavfli bo'lib qoldi. Shu sababli, yevropaliklar oldida yangi yerlarni ochish zarurati paydo bo'ldi. Uchinchidan, oltin, kumush, ziravorlar, fil suyagini topish maqsadida yangi yerlarni qidirish ishlari amalga oshirildi. Buyuk geografik kashfiyotlar tashabbuskorlari Portugaliya va Ispaniyalik dengiz sayyohlari bo'lishgan. Sababi, ularga yangi yerlarni o'zlashtirish topshirig'i berilgan. Ekspeditsiya uchun zarur bo'lgan barcha xarajatlar qirollik tomonidan ta'minlangan. Tarixda Amerika Qit'asini 1492-yilning kuzida Xristofor Kolumb kashf etganligi qayd etilgan. X.Kolumb Amerikaga 4 marta sayohat uyushtirgan, ammo bu yerlarni Hindiston deb atagan. Bunga sabab taxminlarga ko'ra, astronom va geograf Paolo Taskanelli sayyoh olimga Hindistonga g'arbga suzish orqali ancha yaqin yo'l borligi haqida aytgan. P.Taskanelli maslahatlari yordamida hisob kitoblarni bajarib, uning fikricha


Hindistondan Yaponiyagacha 5 ming kilometr masofada yo'l bo'lgan Kanar orollari orqali suzish eng qulay deb o'ylagan. X.Kolumbning birinchi ekspeditsiyaga uchta kema tayyorlagan va flagman (kema) uzunligi - 17,3 m.; hajmi - 101,2 tonna; ekipajida 40 kishi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bo'lgan. Flot tarkibida hammasi bo'lib, 100 kishi kirgan. Ekspeditsiya natijasida, tarixda birinchi marta yevropaliklar Bagam va Gaitiga orollariga qadam qo'yishdi. Bu sayohat bilan Ispaniyaning Yangi Dunyoga ekspeditsiyasi boshlangan. X.Kolumb bu yerlarni Xitoy, Yaponiya yoki Hindiston qirg'oqlari deb o'ylagan. Yevropaliklar bu yerlarni "Vest-Indiya" deb atashgan. 1492-yil 13-oktabrda X.Kolumb qirg'oqqa tushdi, unga Kastiliya bayrog'ini o'rnatib orol Kastiliya mulkiga aylangani to'g'risida akt tuzdi. Ikkinchi ekspeditsiyada X.Kolumb "Admiral" unvoni va 1500 kishilik ekipaj bilan 17 ta kemada safarga chiqdi. Ekspeditsiya natijasida, Dominika, Gvadelupa, Kichik Antil, Yamayka va Kubaning janubiy qirg'oqlari bo'ylab suzib, bir necha orol va yarim orollarni kashf etdi. 1496-yil 11-iyunda Kastiliyaga qaytib keldi. Uchinchi ekspeditsiyada 6 ta kema bilan safar uyushtirdi. Trinidad orolini kashf etdi. Janubiy tomondan Orinoko daryosi deltasi atrofidagi sohil va Pariya yarim oroligacha kirib borib, Janubiy Amerikani kashf etishni boshlab berdi. 1500-yil Kastiliyaga qaytib keldi. To'rtinchi ekspeditsiyada 4 ta kema bilan 1502-yil 12-iyunda Martinika oroliga yetib keldi. Ekspeditsiya izlanishlari natijasida Gonduras, Nikaragua, Kosta-Rika va Panama sohillarini kashf qildi. 1504-yil 7-noyabrda Kastiliyaga qaytib keldi. X.Kolumb birinchi bo'lib, Atlantika okeanining shimoliy qismida joylashgan subtropik va tropik iqlim mintaqalarini kesib o'tgan va Karib dengizida suzgan birinchi yevropalik sanaladi. Dengiz navigatsiyasi, kartografiya va geografiyani chuqur bilgan Vasko da Gama ham geografik kashfiyotlarga o'z hissasini qo'shgan. Vasko da Gama ekspeditsiyani Lissabondan g'arb tomonga yo'l olgan, ammo keyin sharqqa burilgan. Dengiz sayyohlari Atlantika okeanida yoysimon yo'nalishda suzib, Afrikaning janubida bo'lgan burunni "Yaxshi Umid" burni deb atadilar. Vasko da Gama 1497-yilning dekabrda hozirgi Janubiy Afrika Respublikasining sharqiy qirg'oqlarini kashf qildi. 1498-yilning 20-may sanasida esa Hindistonning janubi g'arbdagi yirik savdo markazi hisoblangan Kalikut shahriga yetib keldi va Hindistongaboradigan birinchi dengiz yo'lini ochdi. Amerigo Vespuchchi Ispaniya va Portugaliya dengiz flotida xizmat qilgan. 1499 va 1501-1502-yillarda Janubiy Amerikaning sharqiga uyushtirilgan ekspeditsiyada qatnashgan. Amerigo Vespuchchi bu yerlar Hindiston emas, dunyoning yangi Qit'asi degan fikrni ilgari surgan va Yangi dunyo deb atagan. Valdzemuller 1507-yilda X.Kolumb kashf etgan materikni Amerigo Vespuchchi sharafiga Amerika deb atashni taklif etgan. Bu nom hammaga manzur bo'lgan. Keyinchalik esa Gerard Merkatorning (1512) xaritalarida ilk marotaba Amerika degan so'z ishlatildi. Shu tarzda Yangi dunyoga nom berildi. Tarixda birinchi bo'lib, dunyo bo'ylab sayohatni Fernan Magellan boshchiligidagi ekspeditsiya amalga oshirdi. Bu sayohat Yerning shar ya'ni dumaloq shaklda ekanligini isbotladi. F.Magellan astronomiya va navigatsiya bo'yicha yaxshi bilimga ega edi. 1519-yil sentabr oyida 5 ta kema bilan yo'lga chiqadi. 1520-yilda La-Plataning dengizga quyilish joyigacha yetib bordi. Fevral oyida janubga suzishda davom etdi. F.Magellan ekspeditsiyasi tomonidan ochilgan bo'g'iz keyinchalik Magellan bo'g'izi deb ataldi. Kemalar Olovli Yer oroli bilan Magellan bo'g'izi orqali o'tib, noma'lum okeanga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o'tishdi. Okeanning tinch tabiati uchun F.Magellan tomonidan "Tinch okean" deb nom berildi. To'xtovsiz 17 ming km masofani o'tib, Mariana, Filippin orollariga yetib borishdi. F.Magellan Fillipinlik mahalliy xalq bilan to'qnashuvda vafot etdi. Hamrohlari Tinch okeani orqali suzib, Afrikaning janubi orqali faqat 1 ta "Viktoriya" kemasida 1522-yilda Ispaniyaga qaytib kelishdi va dunyo bo'ylab suzishni yakunladilar. Ekspeditsiya orqali yerning sharsimonligi hamda yer yuzasining ko'p qismi suv bilan qoplanganligi aniqlandi. Golland geografi B.Varenius 1650-yilda Antarktidani o'rab turgan qismini Janubiy okean deb mustaqil okeansifatida ajratgan. Okeanning chegarasi Janubiy Amerika, Afrika, Avstraliya materiklarining va Tasmaniya hamda Yangi Zelandiya orollarining janubiy chekkalari orqali o'tkazilgan shartli chiziq va janubiy qutbiy doira 35-60o j.k. lar orqali o'tkazilgan. Janubiy okeanni alohida okean qilib ajratishda iqlimning sovuqligi, gidrologik sharoitlar asos qilib olingan. Biroq keyingi tadqiqotlar natijasida Janubiy okeanning iqlimiy va gidrologik sharoitlari Atlantika, Tinch va Hind okeanlariga o'xshashligi aniqlangan. Shu sababli Janubiy okean termini ishlatilmagan. Uilyam Yanszon boshchiligidagi Gollandiya Ost-Indiya kompaniyasi ekspeditsiyasi Karpentariya ko'rfaziga keldi. U.Yanszon va ekspeditsiya a'zolari Yangi Gvineya qirg'oqlarini o'rganishdi. Gollandiyaliklar Yava orolidan Yangi Gvineyaning janubiy qirg'og'igasuzib o'tib, bir qancha vaqt o'tgach Keyp-York yarimoroli qirg'og'iga yetib borishdi. Hamda 1606-yilda gollandiyalik U.Yanszon Avstraliyani kashf etgan va Yangi Gollandiya deb atagan. Bir necha oydan so'ng ispaniyalik A.Torres Keyp-York yarimoroli shimolidagi bo'g'izdan suzib o'tdi. Keyinchalik bu bo'g'iz uning nomiga qo'yilgan. 1640-yil gollandiyaliklar materikning g'arbini, qisman shimoliy va janubiy sohillarini kashf etgan. Jeyms Kuk mashhur ingliz dengiz-sayyohi va kartografi. Sayyoh yer shari bo'ylab 3 ta aylanma sayohatga boshchilik qilgan va ko'plab geografik ma'lumotlar to'plagan. Nyufaundlend oroli va Kanadaning sharqiy qirg'oqlarini, Avstraliyani, Tinch, Hind va Atlantika okeanlarini o'rgangan. Hamda J.Kuk tomonidan tuzilgan xaritalar aniqligi bilan alohida ajralib turadi. 1768-1771 yillarda "IN-devor" kemasida Tinch okeaniga amalga oshirilgan birinchi ekspeditsiya Janubiy materikni topish va Avstraliya qirg'oqlarini o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. 1769-yilning oktabrida baland tog' bilan qoplangan noma'lum yerga yetib keldilar. Bu Yangi Zelandiya bo'lib, sayyoh uch oy davomida uning barcha qirg'oqlarini tekshirdi. Keyinchalik ikki orolni ajratib turuvchi bo'g'izga Kuk nomi berilgan. Sayyoh boshchiligidagi ekspeditsiya Okeaniya va Janubiy Atlantika orollarini xaritalarga aniqlik kiritish, uning geologiyasi, hayvonot olamini o'rganish bo'yicha katta hajmdagi tadqiqotlarni amalga oshirgan. 1774-yil 3-sentabrda ekspeditsiya tomonidan Yangi Koledoniya oroli kashf etilgan. 1778-yil 18-yanvarda J.Kuk Gavayi orollarini kashf qildi. Buyuk geografik kashfiyotlarning natijalari. Buyuk geografik kashfiyotlar ilm-fan uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning natijasida geografiya, tarix, etnografiya va okeanshunolik fanlari ma'lumotlar bilan boyidi. Vasko da Gama Hindistonga bolib boradigan dengiz yo'lini ochdi, F.Magellan dunyoning ko'p qismini suv qoplab yotishini





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

aniqlab geografiya fanining rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Mikluxo Maklay esa Yangi Zelandiyaliklar va Yangi Giveniyalik Papuaslar bilan 12 yil yashab bu xalqlar haqida ko'plab ma'lumotlar to'pladi. U nafaqat geografiyaga, balki etnografiyaga ham ma'lumotlar to'plagan. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida yangi dengiz savdo yo'llari ochildi. Dengiz savdo yo'llarining ochilishi o'z navbatida, jahon savdosini vujudga keltirdi. Endi savdogarlar dengiz yo'li orqali uzoq mamlakatlarga tovarlar olib bora olishadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya


Afsonaviy Hindistonni qidirib topishga yevropaliklarni yana boshqa bir sabab ham qiziqtirgan edi. Yevropada tovar xo'jaligining rivojlanishi qimmatbaho metallarni ko'proq talab qila boshlaydi. Oltin bilan kumush Yevropa feodallari va o'sib borayotgan burjuazianing xo'jalik maqsadlariga tobora ko'proq zarur bo'la boslaydi. Ammo G'arbiy Yevropada qimmatbaho metallar qazib olish ishlari juda sust rivojlanmoqda edi. Sharq bilan bo'ladigan savdo oltin va kumush masalasida qo'shimcha qiyinchilik tug'dirmoqda edi. Levant savdosining savdo balansi Yevropa uchun foydasiz bo'lib qoldi. Yevropa Sharqning qimmatli g'aroyib mollari evaziga o'zining qishloq xo'jalik va o'rmon xo'jaligi mahsulotlarini, mis, qalay, qisman movut va boshqa ayrim sanoat mollari bera olardi. Yevropaning bu mollari har holda Sharq mollariga nisbatan umuman ancha arzon yurar va shuning uchun Sharqdan sotib olinadigan mollarning qiymatini qoplay olmas edi. Shunday qilib, yevropaliklar har yili Sharqqa yetmay qolgan summaning muayyan miqdorini qimmatbaho metallar bilan to'lishga majbur bo'lardilar, natijada oltin kumush Yevropaga kirmas, balki undan Sharq mamlakatlariga chiqib ketar edi. Usmonli turklar Vizantiya poytaxti Konstantinopolni bosib olgach, yevropaliklarning Sharq bilan savdo qilishi yanada qiyinlashdi. Usmonli turklar Kichik Osiyo va Suriya orqali boradigan savdo yo'llarini bosib oldilar. Ular shuqadar katta boj olardilarki, bu mamlakatlardan tovar olib o'tish savdogarlar uchun foydasiz bo'lib qola boshladi. Natijada turklar istilosi Yevropadan Osiyoga boriladigan yangi yo'llar qidirib topishni tezlashtirdi. VIII asrda Pireney yarim oroli arab (mavr) lar tomonidan egallab olindi. Ko'plab asrlar davomida bu yerning xalqlari arablar tobelikda yashadi. Asrlar o'tib, arab xalifaligi asta – sekin yemirila boshladi, yarim orolning shimolidagi kichik davlatlar esa, aksincha, rivojlanib, mustahkamlanib arablarga qarshi hujumga o'tishadi. Xristianlarning musulmonlar bilan qilgan bu urushlari XV asrga qadar beto'xtov davom etadi. Musulmonlar qo'lga kiritgan o'lkalarni birin – ketin tashlab chekinishga majbur bo'ldilar. Shiddatli janglar natijasida Pireney yarim orolida ikki yangi davlat: Ispaniya bilan Portugaliya tashkil topdi. Portugallar mavrlarni ispanlarga nisbatan ikki yarim asr ilgari – 1249-yilda haydab chiqardilar va kuchli qirol hokimiyatiga asoslangan davlat barpo qildilar². Dehqonlar, vino soluvchilar va cho'ponlar mamlakati bo'lmish kichik Portugaliya XIV asrdayoq qudratli dengiz flotiga ega bo'ldi. Biroq o'sha vaqtda Portugaliya katta, juda muhim savdo yo'llaridan chetda bo'lib, bu yo'llar uning qudratli raqiblari tasarrufida edi. Chunonchi, Shimoliy va Baltika dengizlarida Ganza ittifoqi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS


hukmronlik qilar, O'rta Yer dengizida va uning sohillarida esa, arablardan tashqari, Shimoliy Italiya shaharlarining savdogarlari, birinchi navbatda Venetsiya va Genuya hamda ispaniyalik katalonlar savdo qilishar edi. O'rta Yer dengizi G'arbiy Yevropani Sharqqa – Hindiston, O'rta Osiyo va olis Xitoyga boradigan Buyuk savdo yo'llari bilan bog'lar edi. Garchi Portugaliya XV asrda qudratli davlatga aylangan bo'lsada, O'rta Yer dengizida hukmronlik qilishni hayoliga ham keltira olmas edi. Chunki asosiy raqiblaridan bo'lmish Ispaniya va Italiya bu dengizda hukmronlik qilar edi. Tabiiyki, yangi yerlarni ochishga va Hindistonga yo'l topish uchun portugal feodallarining nigohi G'arbiy Afrika sohillariga qaratilgan edi. Portugaliya uchun Atlantika ekspansiyasini amalga oshirgan va dengizchilarining Hindistonga dengiz yo'lini topishda mehnati singan, tarixda "Dengiz sayyohi" laqabi bilan mashhur Portugaliya qiroli Xuan I ning uchinchi o'g'li shaxzoda Genrixning (infant Enrike) (1394–1460) xizmatlari katta bo'ldi³. Shaxzoda Genrix Portugaliyaning janubidagi o'zining verflari bilan tanilgan Sagrish shahrida o'rnashadi. Bu keyinchalik Sagrish shahrini dengiz sayohatlariga tayyorlanuvchimarказga aylantirdi⁴. Infant Enrike o'zining qasrida observatoriya va dengizchilik maktabini tashkil etadi. Bu yerda portugaliyalik dengizchilar yangi xaritalar tuzilishini, kompas bilan ishlashni o'rganadilar. Genrixning ko'rsatmasiga binoan bu shaharda uzoq safardan qaytgan kema kapitanlarni kema jurnali va xaritalarni umumiy ko'rib chiqishlari uchun taqdim etishgan. Bu materiallar o'rganilishi asosida yangi ekspeditsiyalarga tayyorgarlik ko'rilgan. Genrix "dengiz sayyohi"ga vatanidagi siyosiy holat va 1415 – yilda arablarning joylashgan Suet qasriga qarshi urushi, Niger hududida savdo – sotiq ishlarini olib borishga kuchli yordam beradi. Uning harbiy qobiliyatidan hayratlangan Rim papasi Martin V, ispan qiroli Xuan II, Angliya qiroli Genrix V shahzodaga ularning armiyasiga qo'mondonlik qilishga taklif qilishgan bo'lsalarda, lekin uning shuhratparastligi boshqa tomonga yo'llanganligi sababli bu takliflarni rad etadi. Uning maqsadi birinchilardan bo'lib Hindistonga dengiz yo'lini topish edi. U Portugaliya kemasozligida ko'plab ishlarni amalga oshirdi. Portugaliya baliq ovlash kemasi yoki savdo kemasining rivojlantirilgan holda ishlab chiqilgan yangi turi, Portugaliya karavellasi XV asr oxirigacha o'zining xususiyatlarini yo'qotmadi. Genrix umri davomida karavellani yengil kemaga aylantirildi, 200 tonna suv sig'imiga ega, uch va undan ortiq machtaga ega qiya yelkanli qilib jihozlandi. Bu unga shamolga qarshi suzishiga imkon berar edi. Bu kemalarni italiyaliklar oddiy qilib nave (kemalar), ispanlar – nao, portugaliyaliklar – nau deb atashgan⁵. Bir paytning o'zida shahzoda Genrix Portugaliyadan va boshqa mamlakatlardan dengizchilarni, butun Yevropadan astronomlar, kartograflar, matematiklar va astrologlarni to'pladi. Sayohat uchun kerakli bilimlarni yig'ish boshlangan edi. Genrixning akasi Pedro Yevropa bo'ylab ko'plab kitoblar va xaritalar to'plab keltirar edi. Shahzoda Genrix o'zi dengiz sayohatlarida ishtirok etmasada, lekin ekspeditsiyalarga tayyorgarlik ko'rishda va amalga oshirishda homiylik qilar edi⁶. Afrikaning g'arbiy sohillaridagi Non burni anchadan buyon barcha sayyohlar uchun falokatli chegara hisoblanardi. Ushbu burunning





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

nomlanishi “Non” – ispan tilida “yo’q”, degan ma’noni anglatib, dengizchilar uchun ahmoqona shon – shuhrat belgisini olgan edi. 1419 – yilda bu burunni Genrix “dengiz sayyohi” tomonidan yuborilgan ikki portugaliyalik dvoryanlar – Xuan Gonsalu Sarku va Trishtan Teysheralar aylanib o’tdilar. Bulargacha biror dengizchi bu burundan o’tishga yuragidov bermagan edi. Kuchli shamol ularni ochiq dengizga surib yuborishi natijasida, keyinchalik o’zlari nom bergan Portu – Santu oroliga kelib qoladilar. Bir yildan so’ng portugallar bu yerga qaytib keladilar va janubi – sharqiy tomondan juda olisda qora nuqtani payqab qoladilar. U yerga borishganda juda qalin o’ramonlar bilan qoplangan orollarga duch kelishadi va bu orollardan eng kattasini Madeyra (O’rmon) deb atashadi. 1431 – yilda Gonsalu Kabral Azor orollarini kashf etdi va arxipelagdagi butun orollarga Portugaliya bayrog’ini o’rnatib chiqdi. 15 yillik orollar kompaniyasidan so’ng shahzoda Genrix dengizchilarini Afrika qirg’oqlari bo’ylab janub tomonga yo’llay boshlaydi. Yuqoridagi kashf etilgan orollar portugallarga dengiz sayohatiga chiqishlarida tayanch nuqta hisoblangan. Shahzoda Genrixning dengizchilari bo’lmish portugallar Bohador burnini (26° shimoliy kenglikda) aylanib o’tishga qaror qilishadi. Bu yer yevropalilar uchun o’tib bo’lmas burun bo’lib, Bohador burnini kuchli shamollar va daxshatli bo’ronlar “qo’riqlar” edi. Portugallar uchun ilgarilari bu yerlar insaon yashaydigan eng chetki chegara hisoblanar edi. 1434 – yilga kelib dovyurak va shuhratparast kapitan Jil Eanish uchinchi urinishda Kanar orollaridan 200 km janubroqda joylashgan bu burunni chetlab o’tishga muassar bo’ladi. Zamondoshlari “Jil Eanishning jasoratini faqat Gerakl jasoratiga tenglashtirish mumkin” deb aytib o’tishgan. Bu muvaffaqiyatdan so’ng ruhlangan portugallar 1441 – yilda Antoniyu Gonsalvish va 1444 – yilda Nunyu Trishtanlar yanada janub tomonga harkatlanishdi. Birinchi dengizchi Antan Gonsalvish Oltin daryo quyilishiga yetib keladi va undan boy oltin qumlarga ega, qora tanli negrlarning zich yashovchi Gvineya sohiliga chiqadi. Gonsalvish Rio-de-Oro sohillaridan ozgina oltin qum bilan qaytadi. Ikkinchi dengizchi Nunyu Trishtan Senegal daryosining quyilish joyiga yetib keladi va 10 negrni asirlikka oladi, Lissabonga olib borib katta narxga ularni qul qilib sotib yuboradi. Shunday qilib 400 yil davom etgan, afrika materigini vayron qilgan va insoniyat uchun sharmandalik bo’lgan qora tanli negrlarni qul qilib sotish davri boshlanadi... 1444 – yildan boshlab portugaliyaliklar ko’plab flotiliyalarni Afrikaga qora tanli qullar uchun yubora boshladilar. Odamlarni ovlash uchun maxsus o’rgatilgan itlardan foylanishar edi. Infant Enrika qora tanli qullar savdosini qo’llab – quvvatlashdan tashqari foydaning 5 qismini o’ziga olar edi. O’sha vaqtlarda Lissabonda qullarning narxi baland edi, shuning uchun ham yil sayin ko’plab kemalar Afrika sohillariga yo’l olar va ko’pincha katta o’ljalar olib qaytardi. Jumladan, o’sha davr hujjatidan quyidagilarni o’qish mumkin: “ Sahovatli, yaxshi ishlarni ato etuvchitangrining o’ziga shukurki, uning xizmati yo’lida ko’p aziyatlar chekib, nihoyat mana shularning evaziga shukuronasini ham ko’rdik, muzaffariyatga erishib, mehnat – shon bilan, ziyon – mukofot bilan taqdirlandi, jami bo’lib 165 bosh erkak, ayol va bolalar qo’lga kiritildi”⁷. Qul savdosi portugallarni G’arbiy Afrika janubiy sohillari tomon





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yanada ichkariga yo'lladi. 1445 – yilda Dinish Diash Yashil burunni aylanib o'tib, Gvineya ko'rfazi sohillarini bir qismini tadqiq qildi. Yashil burundan janubda joylashgan Afrika qirg'oqlari oldingi hududlaridan boshqacha edi. Unumsiz, suvsiz sahro yerlar o'rniga bu yashil vodiylar bilan o'ralgan, qirg'oq yerlar ajoyib tropik o'siliklar bilan qoplangan edi. Genrix va uning yordamchilari ekvator hududlari haqidagi Ptolomey qarashlari noto'g'ri ekanligi isbotlashdi. Ekspeditsiya a'zolaridan biri Fernandes shahzoda Genrixga yozgan xatida shu masalada to'xtalgan edi: “ Janobi oliylarning iltifoti bilan shuni ma'lum qilamanki, Ptolomeyning yer shari bo'linishi haqidagi ovoza bo'lgan qarashlarida juda yaxshi narsalar bor, lekin bir joyda xatoligi bor... Ekvator janubida ko'plab qora tanli qabilalar yashashadi, daraxtlarning aqlga sig'maydigan darajada kattaligi bu yerda o'simlik dunyosi kuchi va mo'l – ko'lligini ko'rsatadi”⁸. 1456 – yili shahzoda Genrix (infant Enrike) “dengiz sayyohi” xizmatida bo'lgan venetsiyalik Alvize da Kadamosto Yashil burunning sharqiy orollar guruhini ochdi⁹. Xristian dinining jonkuyar xizmatchisi va uning ta'limoti targ'ibotchisi infant Enrike Rim papasidan Afrika mamlakatlari bilan savdo qilish hamda janubiy dengizlarda suzish va Afrikaning qirg'oqlarini “to hindlar yashaydigan joy”gacha bosib olish huquqi faqat Portugaliyaga berilishini iltimos qildi va bunga erishdi. Shahzoda Genrix “Dengiz sayyohi” 1460 – yilda vafot etdi. Uning butun faoliyati tajribali dengizchilar tayyorlashi, o'sha davrda eng kuchli deb hisoblangan flotni tuzishi Portugaliya tarixida juda katta rol o'ynaydi. Shahzoda Genrix “Dengiz sayyohi” vafotidan so'ng ham portugaliyaliklarning Afrikaning g'arbiy sohillari bo'ylab janubga harakatlanishi davom etdi. Ular 1482 – yilda Gvineyadagi Oltin Sohilda mustamlaka tashkil etib, fort qurishadi va uni San Jorji-da-Mina (Avliyo Georgiy koni) deb atay boshlashadi. Chunki bu hududda yirik oltin konlari topildi. Tez orada xaritalarda Oltin Qirg'oq bilan bir qatorda Fil suyagi qirg'og'i, Qalampir qirg'og'i, Tutqunlar qirg'og'i paydo bo'ldi. Qalampir qirg'og'i deyilishining sababi – bu yerga afrikaliklar ayirboshlash uchun osiyo qalampirigao'xshash xushbo'y hidli urug'lar keltirib turishgan. Afrikaning dengiz qirg'oqlariga qo'yilgan bu nomlarning o'ziyoq portugallarning asl maqsadlarini, qiyofalarini yaqqol ko'rsatib turibdi. Portugaliya qiroli Xuan II o'z ismiga Gvineya hukmdori unvonini qo'shadi. 1484 – 1486 yillarda Diogu Kan ekvatoridan Kozerog tropiklarigacha bo'lgan Afrikaning g'arbiy sohillari tadqiq qiladi. Diogu Kan uchinchi dengiz sayohatida 21°50' janubiy kenglikka chiqishga muvaffaq bo'ladi. Bu yerda Kross burni bo'lib, ekspeditsiya rahbari an'anaga ko'ra Portugaliya gerbi tushirilgan tosh ustunni o'rnatadi. Bunday ustun “padran” deb atalgan. Ortga qaytayotganda Kongo hukmdorini qabulida bo'ladi va Lissabonga Kongo qirolligi elchisi Kasutu va ko'p sonli afrikalik ruhoniylarni olib keladi.

Natijalar

Diogu Kan ekspeditsiyadan qaytib kelgach tez orada 1487 – yil avgustida uch karavella Bartalameo Diash qo'mondonligida Taxo (Teju) daryosi bo'ylab pastga ochiq dengizga chiqdi. Tajribali dengizchi Xuan Infant ikkinchi kemaga boshchilik qildi. Uchinchi yuk kemasiga Bartalameo Diashning ukasi Diogu Diash kapitan etib tayinlandi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Bu sayohatning birinchi qismi haqida hech qanday tafsilotlar saqlanib qolmagan. Faqat XVI asrning yirik Portugaliyalik tarixchisi Xuan Barrushning kitobi orqali shu va boshqa portugaliyaliklarning dengiz ekspeditsiyalari haqida ma'lumotlar olish mumkin¹⁰. Unga ko'ra, dastlab Bartalameo Diash Kongo quyilish joyiga harakatlangan so'ngra notanish sohillar bo'ylab 29 – parallelgacha suzib borgan. Ular tomonidan nomlangan gavan Angradush-Voltashda Diash karavellalari ichida kichigi bo'lgan yuk kemani 10 ta matros qo'riqchiligida qoldiradi. Bu gavanda yomon ob – havoni o'tkazib, u bu yerdan janub tomonga qarab suzib ketadi. O'n uch kun davomida Diash qo'rqinchli dovul bilan kurashishiga to'g'ri keladi. Qancha janub tomonga suzgani sayin havo harorati tushib boradi. Dengizchilar o'zlarini halok bo'lgan deb hisoblay boshlashadi. Bartalameo Diash Afrika qit'asining eng janubiy nuqtasidagi burunda ikki hafta davom etgan dovulni boshidan kechirdi. Shiddatli bo'ron ularni janubga qarab olib ketadi va Diash qirg'oqni topolmay qoladi. Shuning uchun bu joyni "Tormentoza" (Bo'ronlar burni) deb atadi. Shunda u Afrikaning janubiy qismini allaqachon o'tib bo'lganini anglaydi. Shu yerda sohilga yetib olgach, qirg'oq bo'ylab sharqqa tomon suzib bordi va tezda Hind okeaniga chiqqanini anglaydi. Diash 1488–yil dekabrda Afrika qirg'oqlari bo'ylab 1260 miluzunlikdagi hududni o'rgangach, Lissabonga qaytib ketadi¹¹. U vataniga yetib kelgach Afrika orqali Hindistonga boriladigan dengiz yo'li ochilgani haqidagi quvonchli xabarni qirolga yetkazadi. Qirol "Bo'ronlar burni"ni "Yaxshi umid burni" deb nomlashga buyruq beradi. Biroq Hindistonga tez yetib olish umidining ro'yobga chiqishi oson emas edi, chunki Lissabonni Afrikaning eng janubiy nuqtasidan o'n minglarcha kilometr masofa ajratib turardi. Yaxshi Umid burnidan Hindistongacha yana qancha suzish kerakligini esa hech kim bilmagan. Portugallar bir necha yil davomida oldinga tomon harakat qila olishmagan. Portugaliyaliklarning Hindistonga dengiz yo'lini ochish uchun amalga oshirgan ekspeditsiyalarni 5 bosqichga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchi bosqich 1415 – yildagi Seutuni egallashdan bo'shlangan ekspeditsiya bo'lib, 1434 – yil portugaliyalik dengizchilarni Bohador burnidan o'tishlari bilan tugallandi. Bu davrni dastlabki bosqich desa ham bo'ladi. Bu yillar davomida ko'plab ekspeditsiyalar amalga oshirildi, Atlantika okeanidagi orollarga va Afrikaning g'arbiy sohillariga ko'plab dengiz sayohatlari uyushtirildi. 12 yil davomida Bohador burnidan o'tish uchun ko'plab urinishlar amalga oshirildi va bu burundan kapitan Jil Eanish o'tishga muvaffaq bo'ldi. Shu tariqa birinchi to'siq yengib o'tildi. Ikkinchi bosqich 1434 – yildan to 1462 – yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib, bu davrda Afrika sohillari bo'ylab muvaffaqiyatli dengiz sayohatlari amalga oshirildi. Yashil burunni kashf etilishi bu bosqichdagi o'ziga xos jarayon bo'lib, keyingi sayohatlarni yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon berdi. Bu yerning "yashil" tabiati sayohatchilarni o'ziga rom etdi. Karavella ekipaji a'zolari bu hududdagi palma va baland daraxtlarni birinchi bor ko'rganlarida "ular Nil daryosining Senegal deb nomlanuvchi G'arbiy dengizga quyilish joyiga yaqin turibmiz" deb o'ylashgan. Yashil burun 1445 – yil ochildi, shahzoda Genrixning o'limidan ikki yil o'tib, 1462 – yil portugaliyaliklar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Gvineya qo'ltig'iga yetib kelishdi va keyinchalik bu yerda San-Jorji-da-Mina fortini qurishdi. Biroz tannafusdan so'ng, 1470 – yil besh yil davom etgan dengiz sayohatlarining uchinchi bosqichi boshlandi. Bu davrda Portugaliya yangi kashfiyotlarni amalga oshirishda dengizchilar bilan asosan shartnoma asosida muntazam ekspeditsiya jo'natib turdi. Shu yo'l bilan portugaliyaliklar Gvineya ko'rfazining boshqa hududlar bilan tanishib chiqishdi va 1475 – yil ekvator dan 2° janubroqda joylashgan Yeketerina burniga yetib kelishdi. 1482 – yil to'rtinchi bosqich boshlandi. Bu davrda asosan ikki dengiz sayyohi Diogu Kan va Bartalameo Diash olib borgan ekspeditsiyalarda o'tdi. Kan o'zining birinchi sayohatini 1482 – yil amalga oshirdi. U ham oldingi o'tmishdoshlari kabi janub tomonga suzishni davom ettirdi va Muqaddas Mariya burnida Portugaliya bayrog'ini tikladi. Bu yerdagi Kongo daryosining quyilish joyida Portugaliya gerbi tushirilgan tosh ustun (padran)ni o'rnatdi. 1485 – yil ikkinchi sayohatini amalga oshirdi. Diogu Kan Monte-Negro burniga uchinchi padranni, Krest burniga esa to'rtinchi padranni o'rnatdi. Kan umri davomida dengiz qirg'oqlari bo'ylab 1450 mil suzgan. Ikkinchi ekspeditsiya 1487 - yil Bartalameo Diash boschiligida Lissabondan Kongoga qarab yo'l oladi. Diash Kit qo'ltig'igacha bo'lgan sohillarni o'rganib chiqdi. Bartalameo Diashning bu ekspeditsiyasining ahamiyatli tomoni u “Yaxshi umid” burnini kashf etganida edi. Bu yerdan sharqqa tomon suzib Hindistonga chiqish mumkin edi. Beshinchi bosqichda portugaliyalik dengizchi Vasko de Gamaning 1498 – yil Hindistonga dengiz yo'li ochilishi bilan yakun topdi.

Xulosa

Portugaliyaning Afrika sohillarini o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlari Ispaniyada ham katta qiziqish uyg'otdi. Bu ikki mamlakat o'rtasida, garchi davlat boshliqlarini qon – qarindoshlik iplari bog'lab tursa ham, dushmanlik va adovat hukm surgan. Portugaliya qiroli o'z dengizchilariga Afrika qirg'oqlariga yaqinlashgan har qanday chet el kemasini shafqatsizlik bilan cho'ktirib yuborishga buyruq bergan. Portugallar Afrika qit'asi sohillarini, Hindistonga boriladigan janubiy dengiz yo'lini o'z mulklari hisoblashgan va hech kim bilan bo'lishishni xohlashmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World history: patterns of interaction. McDougal Littell, USA, 2009.
2. Xolliev A, Artiqov X. Jahon tarixi (Yangi davr. Osiyo va Afrika mamiakatlari). – Toshkent, 2014.
3. Габриэльян С. И. История стран Азии и Африки в новое время. – Т., 2012.
4. Европа мамлакалари ва АКШ 1640 – 1918 йилларда. /А.Холлиев тахрири остида. – Т., 2010.
5. Новая история стран Европы и Америки. Первый период / Под ред. Е.Е.Юровской и И.М.Кривогуза. - М., 1998.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

6. Новая история стран Европы и Америки. Второй период / Под ред. Е.Е.Юрковской и И.М.Кривогуза. - М., 1998.
7. Ergashev Sh. Jahon tarixi. Yangi davr XVI-XVIII asrlar. – T.: O'zbekiston, 2014.
8. Бейкер Дж. Историей географических открытий и исследований. – М.: Иностранной литературы, 1950.
9. Жюль Верн. История великих путешествий В трех книгах Открытие земли Книга первая. – М.: Ладомир. 1996.
10. Isamiddinov M. The history of emergence of Sughd Cities // EPRA International Journal of Research and Development. Volume:5, Issue:10, October 2020 India. – P. 125 128.
11. Mirsoatova S.T. New data on the late paleolithic of the Fergana valley // Евразийский союз ученых (2020. – № 10 (79/4). – P. 25–29.
12. Farmanova G.K. The role of the geographic environment and climatic conditions in the formation of economic-cultural type of population when during ancient and antic period // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10, Issue 11, November 2020. – P. 1612–1622. Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13. DOI: 10.5958/2249 7137.2020.01639.0.
13. Rakhmatillayev H. Ethnodynamics of the city population of the Fergana valley of the first half of the XX century // EPRA International Journal of Research and Development. Volume: 5, Issue:5, May 2020. – P. 532–535.
14. Arslonzoda R. Memoirs as asourse on the history of Uzbekistan in the second half of the 19th – early 20th centuries // EPRA International Journal of Research and Development. Volume: 5, Issue:10, October 2020. – P. 119–124.

